



BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT: MUVAFFAQIYATLI XORIJ TAJRIBASI

Qodirova Gulufar Nizomiddin qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0008-5915-553X

+998770898004

E-mail: godirovagulufar@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada global ekologik muammolar kuchaygan davrda yashil iqtisodiyotni qo'llash orqali barqaror o'sishga erishish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan va ularning tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq qilingan. O'zbekiston va uning mintaqalari iqtisodiyotini ekologiya talablari nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologik muammo, yashil iqtisodiyot, xorij tajribasi, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish, mintaq, resurslar, qayta tiklanadigan energiya.

Kirish.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyalashishi kuchayib borishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi bilan birga atrof-muhitga jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan salbiy ta'sirlar ortib boradi. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolarning hal qiluvchi jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Agar insoniyat ekologiya muhofazasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish, ularning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun hozirda aniq va maqsadli harakatlarni amalga oshirib, ularning ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'luvchi choralarni ko'rmas ekan, bundan keyin kechga qoldirilgan har bir jarayon qaytarib bo'lmas



oqibatlariga olib keladi. Hozirga qadar amal qilib kelgan iqtisodiy rivojlanish modellari resursta lab va mehnattalab ishlab chiqarishga asoslangan bo'lganligi bois atrof-muhitga, tabiatga katta zarar yetkazib kelmoqda. Ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlardan ko'rila yotgan ijtimoiy samara tabiatga yetkazilgan zarar oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy zarardan pastligi bilan ajralib turmoqda. Shu sababdan zamonaviy iqtisodiy muammolarni yechishda yashil iqtisodiyot modeli asosiy omil bo'lib sanaladi. Dunyoning ko'plab davlatlari buni tushinib yetgan holda yashil iqtisodiyot modeliga o'tishmoqda. O'zbekistonda ham ekologik muammolar o'zining salbiy ta'sirlarini iqtisodiyotning turli tarmoqlari samaradorligida, aholining salomatligi ko'rsatkichlarida, hududlarning rivojlanish darajalarida namoyon qilib kelmoqda. Ushbu muammolarni yechishda, ta'sirini kamaytirishda mintaqalar iqtisodiyotini, ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlash, cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishda va energiya samaradorligini oshirishda "yashil iqtisodiyot"ning rivojlanishi yetakchi omilga aylanib bormoqda. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning xorij tajribasini o'rganish, rivojlanish qonuniyatlari va uni amal qilishining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PQ-4477-sonli 2030 -yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorning joriy etilganligi ham ushbu masalaning qay darajada dolzarb ekanligini belgilab berdi. Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. Strategiyada "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona



iste'mol qilish ko'zda tutilgan.¹ Ushbu muammolarni hal etishda ilg'or xorij tajribasini o'rganish muhimdir.

Adabiyotlar sharhi.

A.V. Vahobov va Sh.X. Hojiboqiyevning fikriga ko'ra, yashil energetikani rivojlantirishda xalqaro tajriba O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Mualliflar yashil energetika bo'yicha jahon amaliyotini tahlil qilib, uning samaradorligini ta'kidlaydilar va bu jarayonni O'zbekistonda muvaffaqiyatli qo'llash uchun tavsiyalar beradilar².

V.A. Poxvoshev yashil iqtisodiyotning Rossiya ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rnini o'rganar ekan, yashil iqtisodiyot tamoyillarini mintaqaviy sharoitlarga moslashtirish zarurligini qayd etadi. Bu yondashuvni O'zbekistonda ham qo'llash foydali bo'lishi mumkinligini, O'zbekistondagi ekologik muhitni yaxshilashda Rossiya tajribasidan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi³.

Y.A. Lyaskovskaya va K.M. Grigoreva yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlarini hududiy diagnostika qilish orqali ekologik barqarorlikka erishishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydilar. Ularning tahlillari yashil iqtisodiyotning uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy foydasini tasdiqlaydi⁴.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019—2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-Qarori

² Vahobov, A.V. va Hojiboqiyev, Sh.X. "Qayta tiklanadigan energiya iste'molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari", Academic Journal of Digital Economics and stability. 2021.8-10-b.

<https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/135>.

³ Pokhvoshchev, V.A. and Lukina, A.V. (n.d.) "Zelenaya ekonomika" v sotsial'nom razvitii Rossii'. 2018. 12-14-c.

<https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razvitii-rossii>.

⁴ Lyaskovskaya, E.A. and Grigoryeva, K.M. (n.d.) 'Diagnostika regional'nykh vozmozhnostey perekhoda na model' "zelenoy ekonomiki". 2019. 2-6-c. <https://cyberleninka.ru/article/n/diagnostika-regionalnyh-vozmozhnostey-perekhoda-na-model-zelenoy-ekonomiki>.



A.M. Rodrigues yashil iqtisodiyotning barqaror o'sishga ta'siri va ekologik muammolarni bartaraf etishdagi ahamiyatini tahlil qilgan holda, ushbu modelning moliyaviy inqiroz sharoitlarida ahamiyatini alohida ta'kidlaydi⁵.

N.N. Yashalova esa yashil iqtisodiyotning ekologik va iqtisodiy barqarorlikka erishishda tutgan o'rnini o'rgangan. Uning tadqiqotida mintaqaviy sharoitda yashil ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida urg'u berilgan⁶.

V. Podgorniy va F.A. Shulenbayeva Qozog'iston tajribasiga asoslanib, qishloq xo'jaligida yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llashning xalqaro dasturlar yordamida amalga oshirilgan natijalarini tahlil qiladilar⁷.

Mazkur mualliflarning asarlari yashil iqtisodiyot va yashil energetika sohalarida xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan mintaqaviy sharoitda foydalanish bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

“Yashil” iqtisodiyot inson ehtiyojlarini qondirishga, atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirni hisobga olgan holda, kelajak avlodlar farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yishga qaratilgan muammolarni samarali yechish uchun xorij tajribasini o‘rganishda turli tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, sinergetik tahlil, fanlararo yondoshuv metodlaridan foydalanib, quyidagilar aniqlandi: “yashil” iqtisodiyot –bu uzoq muddatli istiqbolda inson farovonligini oshirishga olib keladigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat tizimi; kelajak avlodlarni ekologik xavflarga duchor bo'lishdan asraydigan faktor.

⁵ Rodriguez, A.M. Zelenaya ekonomika v kontekste problem ustoychivogo razvitiya. 2022. 3-7-c.

<https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya>.

⁶ Yashalova, N.N. Stimulirovanie ustoychivogo ekologo-ekonomicheskogo razvitiya regiona.2020. 8-c.

<https://www.prilib.ru/item/684795>

⁷ Podgornyy, V. and Shulenbayeva, F.A. (n.d.) 'Ispol'zovanie “zelenoy ekonomiki” dlya ustoychivogo razvitiya selskogo khozyaystva Kazakhstana'. <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2022/08/ispolzovanie-zeleno-ekonomiki-dlya-ustoychivogo.pdf>.



“Yashil” iqtisodiyot nazariyasi quyidagi aksiomalarga asoslanadi:

- cheklangan resurslar sharoitida cheksiz o‘tib borayotgan ehtiyojlarni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- yer yuzidagi hamma narsa bir-biriga bog‘langan.

Mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil uslubidan, xorijiy davlatlarda barqaror rivojlanish maqsadida “yashil iqtisodiyot”dan qanday yo‘llarda foydalanishayotgani, unga qanday o‘tilayotgani qiyosiy tahlil uslubidan foydalanib o‘rganildi. Natijada “yashil” iqtisodiyotni o‘rganish va iqtisodiy modellashtirishning asosiy obyektlari qatoriga quyidagilar kiradi degan to‘xtamga kelindi:

- ekologik va ijtimoiy omillarni o‘z ichiga olgan va uzoq muddatda iqtisodiy faoliyatdan kelib chiqadigan ekologik zararni minimallashtirishga yordam beradigan iqtisodiy tizimlarni boshqarish usullari;
- ishlab chiqarish va umuman xo‘jalik boshqaruvi atrof-muhitga zararni minimallashtirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga asoslanishi kerak bo‘lgan tamoyillar.

Yashil texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalarni amalga oshirish doirasida energiya tejash, resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo‘llay olish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xorijning ilg‘or tajribalarni o‘rganish jamiyatimizda zaruriy shartdir.

Tahlil va Natijalar.

Jahon iqtisodiyotining modernizatsiyalashuvi davrida ko‘plab yangilangan innovatsion texnologiyalarga o‘tish, rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi iqtisodiyotning samaradorligi omili hisoblanadi. Lekin shuni ta’kidlab o‘tish joizki, albatta, ularning aholi turmush sifatiga va yashash muhitiga salbiy ta’sir qilishni oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli bugungi kunga kelib mamlakatlar tomonidan amalga



oshirilayotgan “yashil” strategiyalar qo’llab-quvvatlanmoqda. So’nggi yillarda milliy iqtisodiyotlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yashil iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun ko’plab mablag’lar yo’naltirilmoqda. Misol uchun rivojlangan mamlakatlar qatorida Xitoyning yashil iqtisodiyotga o’tish tajribasi dunyo uchun qiziqarli va muhim o’rganish obyekti hisoblanadi. Xitoy bu o’zgarishni nafaqat ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy o’sishni qo’llab-quvvatlash uchun ham amalga oshirmoqda. Quyida Xitoyning yashil iqtisodiyotga o’tish yo’lidagi asosiy tajribalar va yutuqlari haqida batafsil ma’lumot berilgan:

1. Davlat tomonidan kuchli qo’llab-quvvatlash.

Xitoyning yashil iqtisodiy siyosatini joriy qilishda hukumatning yetakchi roli sezilarli. 2015-yildan beri Xitoy o’zining “Yashil va past karbonli rivojlanish strategiyasi”ni ishlab chiqib, uning amalga oshirilishiga katta e’tibor bermoqda. Bu strategiya sanoat, energetika, qishloq xo’jaligi va boshqa sektorlarda innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Xitoy hukumati toza energiya ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa rag’batlantirish mexanizmlarini kiritgan.

2. Katta miqdordagi investitsiyalar.

Xitoy yashil iqtisodiyotga o’tish uchun katta hajmdagi mablag’larni yo’naltirgan. Masalan, 2023 yilda toza energiya sohasiga 6,3 trillion yuan (890 milliard AQSh dollari) sarmoya kiritilgan. Bu mablag’lar quyosh energiyasi, shamol energiyasi, energiya saqlash tizimlari va elektr transport vositalari kabi sohalarni rivojlantirish uchun sarflandi. Xitoyning maqsadi – dunyodagi eng yirik yashil iqtisodiy tizimni yaratish va global iqlim o’zgarishlariga qarshi kurashda yetakchi rol o’ynashdir.

3. Texnologik innovatsiyalar.

Xitoy yashil iqtisodiyotda texnologik innovatsiyalarga katta e’tibor qaratmoqda. Xitoy quyosh paneli ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi bo’lib, quyosh energiyasi texnologiyalari eksportida katta yutuqlarga erishgan. Shamol energiyasida ham yangi innovatsiyalar joriy qilinmoqda, masalan, dengizdagi shamol fermalarini o’rnatish va eski



shamol fermalarini modernizatsiya qilish. Elektr transport vositalarida esa Xitoy global bozorga yuqori sifatli va arzon EV mahsulotlarini yetkazib, eksportini kengaytirib bormoqda.

4. Sanoat va energiya samaradorligini oshirish.

Xitoy sanoat sektorida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu choralar energiya resurslarini tejash va chiqindilarni kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan. Ko'pgina sanoat korxonalari energiyani tejovchi uskunalar va texnologiyalarni joriy qilmoqda. Bunday o'zgarishlar nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga yordam bermoqda.


5. Xalqaro hamkorlik.

Xitoy yashil iqtisodiyot sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Xitoy "Yashil Ipak Yo'li" tashabbusi orqali Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrika davlatlariga toza energiya texnologiyalarini eksport qilmoqda. Bu esa rivojlanayotgan davlatlarning yashil iqtisodiyotga o'tishiga yordam beradi.

6. Barqaror shaharlar va qishloqlarni yaratish.

Xitoyda yashil iqtisodiyot nafaqat sanoatda, balki shahar va qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishda ham qo'llanilmoqda. "Yashil shahar" loyihalari orqali ekologik toza infratuzilmalar, energiya tejovchi binolar va yashil transport tizimlari rivojlantirilmoqda. Bu orqali Xitoy fuqarolarining hayot sifati yaxshilanmoqda va ekologik barqarorlik ta'minlanmoqda.

Quyida Xitoyning yashil energiya sektorlarining tarkibini aks ettiruvchi diagramma tasvirlangan:



1-rasm. Xitoyda yashil energiya taqsimoti 2023- yil kesimida.⁸

Ushbu diagramma Xitoyning shamol va quyosh energiyasiga qaratilayotgan kuchli e'tiborini, shuningdek o'sib borayotgan elektr transport vositalari sektorini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyotni joriy qilib, undan samarali foydalanayotgan, bu sohada yetakchilar davlatlardan biri Janubiy Koreya sanaladi. Ushbu mamlakatda 2011-yildan boshlab har yili YaIMning 3 foizi, ya'ni 60 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablag'yashil sektorni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. O'tgan davr mobaynida ushbu sektorda 1,8 mln yangi ish o'rni yaratilgan. Yashil iqtisodiyotni milliy strategiya sifatida qabul qilgan Janubiy Koreya asosiy e'tiborni sanoatga, energetikaga, investitsiyaga, transportning yashil turlariga, ichimlik suvining muqobil manbaalariga, chiqindilarni qayta ishlashga, istirohat bog'larini rivojlantirishga, shaharlardagi daryolarning tozaligiga qaratmoqda. Vazirliklar amalga oshirayotgan turli dasturlar budget xarajatlarini ortiqcha sarflamaslik maqsadida yagona paketga birlashtirilgan. 2011-yildan boshlab hozirgacha Janubiy Koreyada "yashil" tovarlar va xizmatlar iste'molini rag'batlantirish maqsadida "yashil" to'lov kartalari joriy qilingan.

⁸ Source: National Energy Administration in China 2023.



Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) tomonidan e'lon qilingan 2022-yilgi Jahon Energetika Sharhiga ko'ra, Koreya texnologiya va ishlab chiqarish quvvati (quyosh batareyalari va modullarini ishlab chiqarish) jihatidan global quyosh sanoati qiymat zanjirida asosiy o'yinchi sifatida baholanmoqda. Fan va Texnologiyalarni Baholash bo'yicha Koreya Instituti (KISTEP, 2021) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda Koreyaning energiya va resurslar sohasidagi texnologiya darajasi eng yuqori texnologiyaga ega davlat (AQSh) bilan taqqoslaganda 80,2% ni tashkil etgan, texnologiya bo'yicha farq esa 3,7 yilni tashkil qilgan.

Aniqroq aytganda, Koreyaning yangi va qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi fotoelektrik (PV) texnologiyasi yuqori samarali quyosh batareyalari toifasida 90,0% ga baholangan. Koreyaning batareya va modul ishlab chiqaruvchilari (Hanwha Solutions, Hyundai Energy Solutions va boshqalar) texnologiya va ichki bozordan foydalangan holda xorijiy bozorlarni zabt etish uchun chet elda zavodlar qurishmoqda. Bundan tashqari, Koreyaning shamol energiyasi texnologiyasi AQSh darajasining 75,0% ni tashkil etadi va konstruktiv material ishlab chiqaruvchilar (Unison, CS Wind va boshqalar) minoralar va quyi tuzilmalarni qurishda raqobatbardosh deb baholanmoqda. Sanoat yirik shamol elektr stansiyalarini qurish orqali ichki bozorda ishtirok etishni va sarmoyalarni kengaytirish orqali global raqobatbardoshligini mustahkamlashni rejalashtirmoqda.

1-jadval

Janubiy Koreyaning energiya manbalari foiz ko'rsatkichi 2018-2020-yillar kesimida⁹.

Energiya manbayi	Texnologiya darajasi(%)		Texnologiya farqi		Tadqiqot imkoniyati	
	2018-yil	2020-yil	2018-yil	2020-yil	2018-yil	2020-yil

⁹ World Energy Outlook 2022 ma'lumotlariga ko'ra muallif tomonidan yaratildi.



1.Yuqori samarali quyosh batareyasi	87,5	90,0	2,0	1,0	A'lo	A'lo
2.Shamol energiyasini ishlab chiqarish	74,0	75,0	5,0	5,0	O'rtacha	O'rtacha
3.Bio va chiqindidan energiya olish	71,5	78,0	4,8	4,0	A'lo	A'lo
4.Geothermal energiya	68,5	69,0	5,0	5,0	O'rtacha	O'rtacha
5.Dengiz energiyasi	81,5	81,0	4,3	4,5	A'lo	A'lo
6.Vodorod va yonilg'i hujayrasi	78,3	75,0	3,0	3,0	A'lo	A'lo

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga mo'ljallangan dasurlar qabul qilingan. Energetika, jamoat transporti va infratuzilma, qurilish, chiqindilarni utilizatsiya qilish yo'nalishlarida dastabki yo'nalishlar sifatida tanlangan va hozirga qadar ancha hajmdagi ishlar amalga oshirilgan. 2019-yil dekabrda Yevropa Itifoqida "Yevropa yashil yo'li" dasturi qabul qilindi. Unga asosan 2050-yilga mintaqada uglerod neytralligiga erishish, 2030-yilga qadar issiqxona gazlarini 1990-yildagiga nisbatan 55 foizga kamaytirish, ekologik toza texnoloigyalarni investitsiyalash, jamoat transportining nisbatan toza va arzon turlarini qo'llash, innovatsiyalarni joriy



qilishni rag‘batlantirish maqsadida sanoatni qo‘llab-quvvatlash, energetika sektorini dekorbanizasiyalash, binolarning energiya samaradorligini oshirish kabi tadbirlar amalga oshirish belgilangan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bunga hududning tabiiy-ekologik sharoiti va resurslari, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish ko‘rsatkichlari, mavjud moliyaviy-iqtisodiy resurslarni ko‘rsatish mumkin. Tabiiy-iqlimiy sharoit respublikada muqobil energiya manbalarining ulkan zaxirasi mavjudligini ko‘rsatadi. Quyosh energiyasining yuqoriligi, sanoat rivojlangan va aholi manzilgohlari atrofida keng maydonlarning mavjudligi quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, tog‘ oldi hududlari va voha hamda cho‘l hududlaridagi bufer zonalarda doimiy shamollarning mavjudligi shamol energiyasi imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha dastlabki jarayonlar boshlangan, bu borada huquqiy asoslar shakllantirilib borilmoqda, qator farmon va qarorlar rasmiylashtirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlash” to‘g‘risidagi, 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari shular jumlasidan. Ushbu huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga asosan 2030-yilgacha quyidagi strategik maqsadlarga erishish mo‘ljallangan ¹⁰.

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://uza.uz/uz/posts/2030-yilgacha-ozbekiston-respublikasining-yashil-iqtisodiyotga-otishiga-qaratilgan-islohotlar-samaradorligini-oshirish-bo'yicha-chora-tadbirlar-tog'risida_431596.



- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish;
- 2023-yil 1-iyundan boshlab mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologiya va atrof-muhitga ta’sirni cheklash bo‘yicha qo‘yilayotgan talablar asosida “yashil sertifikatlar” tizimi joriy etish;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini davlat tomonidan hisobga olish va ularning davlat kadastrini yuritish;
- uglerod birliklarining reyestrini shakllantirish va yuritish;
- iqtisodiyot tarmoqlari kesimida issiqxona gazlari chiqarilishini qisqartirishning maqsadli ko‘rsatkichlarini belgilash;
- issiqxona gazlarining chiqarilishini qisqartirish bo‘yicha faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;



- 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi Iqlim o'zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi (MRV) yo'lga qo'yish;
- tarmoq va hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish doirasida tarmoqlar va hududlarning iqlim o'zgarishiga nisbatan sezuvchanligi xususiyatlaridan kelib chiqib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish hamda unga moslashish chora-tadbirlari va investitsiya loyihalari qamrab olish;
- 2023-yil 1-iyulga qadar "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini to'liq joriy etish;
- "yashil" iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida "yashil" texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish;
- istiqbolli innovatsion ishlanmalar va "startap" loyihalarni amalga oshirish hamda ularni tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar mo'ljallangan.

Muallif O'zbekiston sharoitida hozirda, dastlabki davrda yashil iqtisodiyotni joriy qilish va rivojlantirishi yo'nalishlari sifatida quyidagilarni tavsiya qiladi:

- Chiqindilarni utilizatsiya qilish sohasida. Ushbu sektorda tezkorlik bilan yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish talab etiladi. Bu o'z navbatida atrof-muhitning ifloslanishi muammolarini kamaytirishi bilan birga, insonlar salomatligi bilan bog'liq muammolarning ham kamayishiga olib keladi;
- Tabiiy resurslardan (yer, suv, biologik, atmosfera) foydalanish sohasida. Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy



qilish talab etiladi. Bunda oziq-ovqat va suv xavfsizligi, ekologik sof mahsulot ishlab chiqarish masalalari ham qisman yechim topadi;

- Energetika sohasida. Mamlakatda 2022–2023-yilgi qish mavsumida kuzatilgan energetika inqirozi kabi muammolarning yechimi sifatida mamlakat mintaqalarida muqobil energiya manbalarini oshirish, mavjud energiya quvvatlarini modernizatsiyalash zarur.
- Qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasida. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, gidrotexnik inshootlar foydali ish koeffitsiyentini oshirish sohada katta hajmda resurstejamkorligiga olib keladi;
- Jamoat va shaxsiy transport sohasida. Transport tizimini yashillashtirish atmosfera havosi masalalariga yechim bo‘lishi bilan birga energiya iste’moli tejamkorligini shakllantiradi;
- Yashil texnologiyalar va yashil ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishni kuchaytirish, bunday texnologiyalarni joriy qilganlik uchun rag‘batlantirish tizimni joriy qilish zarur;
- Ekologik madaniyatni kuchaytirish sohasida. Jamiyatning turli qatlami ishtirokchilarida tabiatga munosabat, atrof-muhit muhofazasi masalalarida madaniyatni oshirib borish, zamonaviy resurstejamkor texnologiyalar va ekologik madaniyatning samarasi to‘g‘risida targ‘ibotlarni kuchaytirish lozim.

Xulosa va Takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, atrof-muhit holati sifatini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan siyosatning ustuvor maqsadlariga erishish uchun ekologiya sohasidagi barcha nazorat funksiyalari ta‘minlanishi, atrof muhitni muhofaza qilish ekspertlari uchun yagona metodologiya ishlab chiqilishi, ekologik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik fikrini o‘rganish mexanizmini yaratish, shuningdek, o‘quv darslariga ekologiya, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish yuzasidan ilmiy manbalar kiritish orqali ekota’lim berish tizimini rivojlantirish va bu sohada yetakchi



malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyot hududiy va makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan birga aholi farovonligini oshishiga, tabiiy muhit va aholi salomatligining yaxshilanishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo'ladiki, yashil iqtisodiyotni dastlabki rivojlantirish jarayonida ustuvor tarmoqlarga e'tibor qaratish va ularning imkoniyatlarini kengaytirgan holda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham yashillashtirib borish samarali sanaladi. O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish va uni samarali rivojlantirish uchun yetarli tabiiy-iqlimiy, ekologik, moliyaviy-iqtisodiy, texnologik imkoniyatlarga ega. Bu borada yetakchi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019—2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori.
2. Vahobov, A.V. va Hojiboqiyev, Sh.X. "Qayta tiklanadigan energiya iste'molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari", Academic Journal of Digital Economics and stability. 2021.8-10-b. <https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/135>.
3. Pokhvoshev, V.A. and Lukina, A.V. (n.d.) "Zelenaya ekonomika" v sotsial'nom razvitii Rossii'. 2018. 12-14-c. <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razvitii-rossii>.
4. Lyaskovskaya, E.A. and Grigoryeva, K.M. (n.d.) 'Diagnostics regional'nykh vozmozhnostey perekhoda na model' "zelenoy ekonomiki". 2019. 2-6-c. <https://cyberleninka.ru/article/n/diagnostika-regionalnyh-vozmozhnostey-perekhoda-na-model-zelenoy-ekonomiki>.



5. Rodriguez, A.M. Zelenaya ekonomika v kontekste problem ustoychivogo razvitiya. 2022. 3-7-c. <https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya>.
6. Yashalova, N.N. Stimulirovanie ustoychivogo ekologo-ekonomicheskogo razvitiya regiona.2020. 8-c. <https://www.prilib.ru/item/684795>
7. Podgornyy, V. and Shulenbayeva, F.A. (n.d.) 'Ispol'zovanie “zelenoy ekonomiki” dlya ustoychivogo razvitiya selskogo khozyaystva Kazakhstana'. <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2022/08/ispolzovanie-zeleno-ekonomiki-dlya-ustoychivogo.pdf>.
8. Yavmutov, D.Sh. and Burxonov, S. (2022) 'O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish: istiqbol yo‘nalishlar va ustuvor vazifalar', Obrazovanie nauki i innovatsionnye idei v mire, 10(2), pp. 159–168.
9. National Energy Administration in China 2023.
10. World Energy Outlook 2022.